

JALOLIDDIN RUMIY IJODIDA O'ZIGA XOSLIK

Ko'charmurodova Shohsanam Ravshan qizi,

Pedagogika va tillarni fakulteti talabasi

shohsanamkocharmurodova@gmail.com

Yakubova Safiya Hamdamovna,

Ilmiy rahbar: Sharof Rashidov nomidagi SamDU Urgut filiali

Pedagogika va tillarni fakulteti o'qitish metodikasi kafedrasi assistenti

safiyayakubova1231@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk mutafakkir Jaloliddin Rumiyning tasavvufiy qarashlarida islom dinining asosiy mohiyati ma'rifat va irfoniy taffakkur ekanligi ham falsafiy ham ilmiy jihatdan chuqur bayon etgan va eng asosiysi oddiy va tushunarli tarizda odamlarning qalbi va ruhigacha yetkažib bera olgan.

Kalit so'zlar. Ruhiyat olami olam va odam, o'zlikni anglash, sevgi, so'fiylik, tasavvuf, vaqdat, "Ichingdag'i ichingdadur, dunyoviy istak, diniy bilim "Masnaviy ma'naviy".

MEVLANA CELALİDİN RUMİ'NİN ESERİNDEKİ ÖZELLİKLER

Ko'charmurodova Shohsanam Ravshan kizi,

Pedagoji ve Diller fakültesi öğrencisi

Yakubova Safiya Hamdamovna,

Bilimsel danışman: Öğretim yöntemleri anabilim dalı asistanı,

Şarof Raşidov adına Semerkand Devlet Üniversitesi Urgut Şubesi,

Pedagoji ve Diller Fakültesi

Özet. Bu makalede, İslam'ın temel özünüň aydınlanma ve tasavvufi düşüncesi olduğu, büyük düşünür Celaleddin Rumi'nin tasavvufi görüşlerinde derinlemesine felsefi ve bilimsel olarak açıklanmakta ve en önemlisi bunu insanların gönüllerine ve ruhlarına sade ve anlaşılır bir şekilde ulaştırmayı başarmıştır.

Anahtar kelimeler. Ruh âlemi, dünya ve insan, öz farkındalık, aşk, tasavvuf, gizemcilik, zaman, "İçinde ne varsa sende o vardır", dünya arzusu, dinî bilgi, "Mesnevi, manevi."

ОСОБЕННОСТИ ТВОРЧЕСТВА ДЖАЛАЛИДДИНА РУМИ

Кочармурадова Шохсанам Равшан кызы,

Студентка факультета педагогики и языков

Якубова Сафия Хамдамовна,

Научный руководитель: ассистент кафедры методики преподавания,

Ургутский филиал СамГУ имени Шарофа Рашидова,

Факультет педагогики и языков

Аннотация. В данной статье подробно, как с философской, так и с научной точки зрения, объясняется, что основная суть Ислама - это просвещение и мистическое мышление в мистических воззрениях великого мыслителя Джалалиддина Руми, и что самое главное, он смог донести это до сердец и душ людей простым и понятным способом.

Ключевые слова. Мир духа, мир и человек, самосознание, любовь, суфизм, мистицизм, время, «То, что внутри тебя, то внутри тебя», мирское желание, религиозное знание, «Маснави, духовное».

CHARACTERISTICS IN THE WORK OF JALALIDDIN RUMI

*Ko‘chamurodova Shohsanam Ravshan qizi,
Student of the faculty of Pedagogy and languages*

Yakubova Safiya Hamdamovna,

*Scientific advisor: Assistant at the Department of Teaching Methodology,
Samarkand State University Urgut Branch named after Sharof Rashidov,
Faculty of Pedagogy and Languages*

Abstract. In this article, the great thinker Jalaliddin Rumi deeply explained both philosophically and scientifically that the main essence of Islam is enlightenment and mystical thinking in his mystical views, and most importantly, he was able to convey it to the hearts and souls of people in a simple and understandable way.

Keywords. The world of the spirit, the world and man, self-awareness, love, Sufism, mysticism, time, "What is within you is within you", "worldly desire, religious knowledge", "Masnavi, spiritual".

Mumtoz sharq adabiyotida buyuk allomalar borki, ular o‘z davridayoq insonlarga ma’naviy ozuqa va pirikomili bo‘lishgan. Mana shunday mutafakkir, valiylardan biri Jaloliddin Rumiy 1207-yilda Balxda Bahouddin Valad oilasida tavvallud topgan. Arablarning da`vosiga ko‘ra, Rumiyning Ota-onasi avlodni Muhammad(s.a.v) va Xalifa Abu Bakir shajarasiga borib taqaladi. Uning otasi ulug‘ shayxlardan donishmandlardan biri bo‘lgan. Bahouddin Valad Muhammad Xorazimshoh bilan kelisholmay Balxdan chiqib ketadi va Makka safaridan so‘ng, Turkiyaning Ko‘niya shahrida qo‘nib topadi va shu yerda muqim qoladi va 1273-yilda vafot etadi. Uning ilmiy adabiy merosi juda kattadir. Mavlona Rumiy arab, fors tillarida ijod qilgan. Masnaviy, ruboiy va g‘azallarini o‘zichiga olgan "Devoni Kabir" ("Ulug‘ devon")da uch mingdan ortiq she‘rlari bor. Falsafiy-so‘fiyona g‘oyalar ruhiyat olamini kashf qilgan asarlaridan yana biri "Masnaviy ma’naviy" si Qur‘ondan kiyingi o‘rinda turuvchi muqaddas kitobdir. Uning asosini Qur‘ondagi oyatlar, hadislar, hikoyatlar va timsollar tashkil qilgan bu asar 6 jilddan iborat. Qur‘oni karim oyatlarining yetmish foiz mohiyatini o‘zida mujassamlashtirgan, 270 dan ziyot hikoyalarni, yuzlab pand-u hikmatlarni o‘z ichiga olgan va shu o‘rinda o‘ta murakkab falsafiy, so‘fiyona qarashlarni oddiy sodda qilib turmish tafsilotlari bilan yetkazib bergen. Jaloliddin Rumiyini o‘rganish asosan, XIV asrdan boshlab, biringchi navbatda uning izdoshlari va shogirtlari uning ta‘limotini o‘rganishga kirishishgan. Xususan, uning o‘g‘li Sulton Valad bo‘lib, otasining ta‘limotini davom ettirgan va asarlarini sharhlab keng jamoatchillikka yetkazishga harakat qilgan. Reynold Nicholson: Ingilis sharqshunosi, Rumiyning "Masnaviy" asarini ingilis tiliga tarjima qilib, Rumiyning asarlarini G‘arbda keng yoyishga harakat qilgan. Radiy Fish rus yozuvchisi sharqshunosi Mavlono Rumiy haqida asar yozadi u "Jaloliddin Rumiy" asaridir. Uni O‘zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol tomonidan tarjima qilgan. Va shu o‘rinda Jaloliddin Rumiy haqida o‘zi ham keng ko‘lamda o‘rganadi va keng targ‘ib qilgan va shu qatorida Munavvara Oymatovaning ijodiy faoliyatida ham Mavlono Rumiy alohida ahamiyatga egadir.

Jaloliddin Rumiy hayoti va ijodini o‘rganib, ma`naviy ustozni sifatida ko‘rib, uning ijodiy faoliyatini insonlarga yetkazish maqsadida ko‘plab ilmiy izlanishlar, dissertatsiyalar, maqolalar va kitoblar ham ommaga taqdim qilinmoqda. Jumladan, Ch.Xumoi, M.Cha’fari, R.Xadizade, N.Odilova va Radiy Fishning Jaloliddin Rumiy asarini T-1986-yil. (Jamol Kamol tarjimas) olishimiz mumkin. Radiy Fish bu asari haqida shunday yozadi: "Ushbu kitob tarixiy faktlar va bizgacha yetib kelgan dalillarga suyanib, shoirning hayoti, uning ma`naviy izlanishlari tarixini tiklashni ko‘zlagan bir urinishdir" deb bayon qiladi.

Munavvara Oymatova olma "Rumiy va o‘zbek adabiyoti" mavzusida ilmiy ishlar olib bormoqda. Olma Rumiy hayoti va ijodi bilan bog‘liq bir necha maqolalarini e’lon qilgan. Ulardan biri [Rumiy dunyosi_ 2013-yil.] mavzusidagi maqolasidir.

XX asrning boshlarida rus sharqshunoslari: A.Karimskiy, I.E.Goldsier, E.Bertels kabi tadqiqodchilarni keltirish mumkin. Jaloliddin Rumiyning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilishda Asqar Mahkam, Ulug'bek Hamdam va Jamol Kamol kabi ijodkorlarimizning mehnatlari beqiyosdir.

Jaloliddin Rumiyning "Fiqihi mo-fiqiho" ya'ni "Ichingdag'i ichingdadur" asari juda buyuk asar deb atashimiz mumkin. U kitob bir baxtli insonning hayoti yoki bir baxtsiz haqida emasdir. U barcha insonlarning o'zligini bilish haqidadir. Uni o'qigan inson, albatta." Men haqimda ekan" deb o'ylasa ajab emas. Unda insonni tadqiq qiladi, botniy ilmlar manbai, o'zini anglash va shu orqali ilohni anglash mumkinligini ochib bera olgan. Insonning javhari bo'lmish sof qalbi, iymoni tafakkuri bilan naqadar buyukligini e'trof etish bilan birga nuqsonlari nafsi, hirslarini jilovlay olmagani uchun insonga nuqson emas balki ashaddiy dushmani uni qafasga soladi. O'zini o'zligini unutgan insonlar nafsiga qul bo'ladur shu sababli insoniylik fazilatlari yo'qolib hayvondan farqlanmay qoladi. Birgina shakilda inson qiyofasi qoladi, u yerda ma`no mohiyatan yo'qdir. O'zini anglay boshlagach dushmanini ham ilohni ham o'z ichidan topa boshlaydi.

"Ichingdag'i ichingdadur" asarining bir hikoyasida keltiriladiki: Bir odam zahar solingen kosani Hazrati Umarga olib kelishdi va shunday dedi: -bu dushmanlarni bildirmsdan o'ldirish uchun juda yaxshidir, bir tomchisi bilan bir dushmanimizni yo'q qila olishimiz mumkin. Shunda Hazrati Umar menga olib keling men ichayda ichimdag'i minglab dushmanlarimni o'ldiray dedida zaharni hammasini ichib yuboradi. Aslini olib qarasak bu, yerda Hazrati Umar o'zligini anglay boshlagach, o'zining asl dushmani o'z ichida ekanligini anglagan insonga qiyoslagan. Jaloliddin Rumiy o'zining barcha qarashlarida butun olamning yaratuvchisi bo'lgan Olloho ni va u yaratgan odam va olam haqida o'zining tasavvufiy fikirlarini Qur'on va hadislarga va islom falsafasi g'oyalariga tayangan holda insonlarga yetkazishga harakat qilgan. Mavlona Rumiy hech kimga o'xshamaydi, albatta, komil inson avliyolar olim-u fuzalolarning xilma-xil asarlari mavjud. Lekin ularning ayrimlarini o'qiyotganimizda o'z hayotimizga nisbatan nafrat uyg'onishi, ular baxtdan sarmast ekanligini hayotlari go'yoki baxt qasridan qurilgan bizning hayotimiz ularning hayotlari oldida bir zulmatdek tuyiladi. Ularning hayotidagi har bir narsalar yaxshi bo'lishi va yaxshilik bilan tugashi va mutolachi ham o'z hayotida shunday bo'lishiga umid qiladi, vaholangki, hayotda doim unday bo'lmasligi sababli insonlarda hayotga nisbatan ishonchi so'nadi. Mavlona Rumiy shunday deydi" - Qushning ozodligidan, charx urib aylanishidan, baxtidan mahbusga ne naf? Qaytaga u ana shu holiga ko'nikib yashashiga to'sqinlik qiladi, istirobini oshiradi, xolos." deya ta'kidlab o'tadi. Jaloliddin Rumiyning o'ziga xosligi shundaki, shoh-u gadoga, olim-u avomga va barcha turli din vakillariga birdekkta'sir qila olgan. Shu bilan birga inson ko'nglida mudrab yotgan umidsizlikni, ishonchni qayta tiklaydi.

Inson faqat bu dunyonи ikki ko'zi bilan aqli bilan ko'rib aqli bilan tushinish bilan cheklanibgina qolmay balki, ko'z kormay, aqil bilan anglab bo'lmaydigan narsalar ham borligini unday narsalarini anglash tushinib yetish uchun qalb ko'zini ochish, o'zligini tushinish kerakligini mohiyatan ochib bera olgan. Uning asarlarida unda tasavvuf taraqqiyoti, falsafa, lm-u hikmat she'riyat, ma'naviy komillik hammmasini o'zida mujassamlashtirgan benazir insondir. Har bir asarining har sahifasida bir olamni tanish hech gap emasdir. Uning asarlarini o'qigan inson buni anglashi shubhasizdir.

Mavlonani tushinish ham bir mahoratdir. chunki so'zini tushingan bilan mohiyatan tushinish va tushinmaslik bordir. Jaloliddin Rumiyning "Ichingdag'i ichingdadur" asarida keltiridi: - Bir kuni bir yig'inda va`z o'qilardi. U yerda musulmonu kofirlar hamma yig'ilari, turli ahvolga tushgan edi. Birov: kofirlar nega yig'ilishdi, ustaga-ustag tilni bilishmaydi. Musulmonlarning ham mingdan biri arang tushinishgan va`zdan ular nimani anglayabdki, buqadar yig'lab siqtashadi deb so'radi. Mavlono buyurdiki: So'zning o'zini tushinishga hojat yo'q. ular mohiyatini maqsadini anglashmoqda. Ular ham Ollohnning borligini e'tirof etishdi va uni anglashdi dedi. Shundan bilinadiki tushinishdan ko'ra mohiyatan anglash muhimdir. Uning fikricha dunyo dirlari mohiyatan birdir. Ularning o'rtasida tafovutlar qarama-qarshiliklar bo'lsa-da .aslida olib qaralganda qarama-qarshiliklar bir-birlarini tushunmaslikdan kelib chiqadi. Buni yanada soddarroq qilib tushintirish

uchun misol keltiradi: ko‘ryabsanmi Ka`baga shimol-u sharq, janub va g‘arbdan iroqu ajamdan yo‘lga chiqadi . ularning yo‘llari har xil ammo maqsadlari birdir.

Yo‘lda ixtiloflar har xil tortishuvlar bo‘ladi, ammo Kabaga yetgach maqsadlari bir ekanligini anglaydi, ixtiloflar barham topadi. Jaloliddin Rumi kelishmovchiliklar ma`noda emas, shakilda, so‘zadir. Ma`noga yetishganlar orasida nizo yo‘q. Rumi ta`kidlaydiki, Olloohni chin dildan sevish, unga ishonish suyanish inson qalbining ich ichidadur. Inson o‘zligini tanish orqali - Olloohni tushinishga undaydi.

Jaloliddin Rumi: Avval aqilli edim , dunyoni o‘zgartirishni xohlardim. Keyin donolik keldi. O‘zimni o‘zgartirishni boshladim.

Aynan shu jumlesi ham insonning hayotiy tajribalari orqali o‘zini anglash jarayonini va ichki olamini o‘zgartirishning muhimligini ifodalaydi.

Jallolidin Rumi hayotidagi eng muhim voqealardan biri, Shams Muhammad ibn Ali Tabriziy bilan 1244-yilda Konya shahridagi uchrashuvi bo‘lgan. Shams Tabriziy XIII asrda yashagan va g‘oyatda chuqur bilimga ega bo‘lib , o‘zining sirli va ruhiy mahorati bilan mashhur bo‘lgan. U oddiy diniy olim emas, balki ilohiy haqiqatlarni izlagan va bu haqiqiy sevgini topishga intilgan murshid sifatida tanilgan. Bu uchrashuv bir zumda butun hayotini o‘zgartirgan. O‘sha vaqtda Rumi mashhur fiqh va olim edi, ammo Shams Tabriziy bilan uchrashuvidan so‘ng, u o‘zining ruhiy hayotiga chuqurroq kirishib, tasavvuf yo‘liga o‘tgan. Shams Tabriziy Rumiyning qalbiga chuqur ta`sir qilib, uni sof ilohiy sevgi bilan tanishtirgan.Rumiya 3 yil dars beradi. Shams bilan uchrashuvini ichki uyg‘onish, qalbning yangilanishi sifatida ko‘rgan va bu holat uning she`riyatida chuqur aks etgan. Shams Rumi hayotida ma`naviy ustoz va ruhiy yo‘lboshchi o‘rinda bo‘lgan. Va Rumi uchun ilohiy sevgining ramzi bo‘lib qolgan va u Rumiyni sof ilohiy haqiqatni izlashga undagan. Rumiyning hayotida bunday buyuk inson borligidan butun vujudi bilan his qiladi va buni ijodida ham ko‘rish mumkin. *Shoirning bir baytida “Agar Attor menga ruh baxsh etgan bo‘lsa, Shamsi Tabriziy tilsim kalitini tutqazdi” degan.* Rumi ustozini nihoyatda hurmat qilgani uchun o‘z g‘azallarida “Shamsi Tabriziy”, “Shamsi” taxalluslarini qo‘llay boshlagan. “Men Shamsga yetdim, uni sevib, o‘zligimdan vos kechdim, faqat unga bog‘landim.” Bu g‘azalida Rumi o‘zini butunlay Shamsga bag‘ishlaganini va u orqali ilohiy sevgi bilan yashayotganini anglatadi .O‘zligini yo‘qotish (fano) va Xudo bilan birlashish (baqo) jarayonini bu g‘azalda yorqin tasvirlagan. Shams Tabriziyga bag‘ishlagan g‘azallar orqali Rumiyning ilohiy sevgi, ruhiy uyg‘onish va ma`naviy yuksalish haqidagi chuqur fikirlar hisoblanadi.Shams uning uchun ilohiy nurni anglatadi, va u orqali inson o‘zligini topib, Xudoga yaqinlashadi. Jaloliddin Rumi ijodi kitobxonga chuqur ma`naviy va falsafiy tushunchalarini beradi. Qalb ko‘zini ochishga,o‘zini o‘zligini anglashga, insonlarning ichki olamini nafaqat tashqi olamiga ham nazar solish va uni boyitish imkonini beradi. Rumi sevgi, poklik, komilliklarga yetishish va insonlarni Allohga yaqinlashtiruvchi bir ko‘prik deyishimiz mumkin. Go‘yoki, sahrodagi tashna bir insonga SUV berib, ikkinchi hayot tuhfa qilgandek va shu tashna bir inson SUVni har tomchisini tanasida his qilib butun tanasi jonlanar, harakatga kelarkan, Rumiyning har so‘zi o‘sha SUV tomchilardek insonning butun vujudi va ruhi tetikalshadi, poklanadi. Rumiyning har so‘zları, asarlari barchaga manzurdir. Hammaga birdek Manzur kelish bu o‘ta mushkuldir. Deylik: bir diniy bilimlar olimi yo dunyo ilimlar olimilar so‘zları o‘z yonalishidagilarga ma`qul bo‘lishi mumkin. Negaki din odamlari iymomlariga qorilarining ilmi va so‘zlarini ma`qullashadi.dunyoviy insonlar ham shundaydir, olimlariga ishonishadi. Lekin Rumiya shunday o‘ziga xoslik norki, har ikki dunyoqarshli insonlarga va ikkisiga ham ega bo‘limganlarga ham birdek ta`sir qiladi Rumi go‘yoki bir ko‘zgudir, ko‘zguga qaragan insonlar esa faqat o‘zini o‘zligini ko‘radi va aynan o‘zining xató va kamchiliklarini ko‘radi va anglaydi va o‘zidagi kamchiliklarini tuzatishga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Rumi asarlari insonlarga ichki dunyosiga nazar solishga yordam beradi. U insonni o‘z nafsi bilan kurashishga, dunyoviy istak nafsiyatlarini yengishga undaydi. Rumi ijodi kutubxonlarni har bir inson ga dini, millati yoki fikriga qaramasdin, hurmat bilan qarashga undaydi. U insonparvarlikni, mehribonlikni va birdamlikni targ‘ib qiladi. ”Biz turli xil fikirlarga ega bo‘lishimiz mumkin, lekin haqiqat yagona va unga yetishishning turli

yo'llari bor". "Haqiqiy baxt, tinchlik insonning tashqi dunyosida emas, balki qalbining chuqur qatlamlarida yashaydi. U sen o'zingni kichik bir zarradek his qilasan, lekin sen butun olamni o'z ichingda olib yurgan koinotsan" deya insonning naqadar buyukligiga ishora qiladi. Shunday qilib butun millat shoiri bo'lmish Mavlono Rumi ijodini o'rganishimiz, ilmiy tadqiqodlar olib borib kelgusi avlodga o'zimizdan yetarlicha bilimlarni qoldirishimiz shunday buyuk insonlarning ijodiy faoliyatini yanada keng ko'lama targ'ib qilishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abulqosim Firdavsiy. Shohnoma – Toshkent G'.G'ulom nomidagi nashiriyoti NMIU. 2017.
2. Hotam Umurov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti-2004.
3. U.Jo'raqulov, K.Hamroyev, Qiyosiy adabiyotshunoslik. (O'quv qo'llanma). – T. "Lesson press" nashriyoti, 2021.
4. Tron yekaya M., Nemetskiy sentimentalnoyumoristicheskiy roman epoxi Prosvesheniya, L., 1965;
5. Kochetkova N.D., Poeziya russkogo sentimentalizma. N.M. Karamzin, I.I.Dmitriyev, v kn., Istorya russkoy poezii, t. 1, M.L. 1968.
6. Sulton I. Adabiyot nazariyasi.-Toshkent . O'qituvchi, - 1980. – 356-bet.
7. Qur'onov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. 2-qism -Almata: 2021 183-bet.
8. Jaloliddin Rumi. "Ichingdag'i ichingdadur" Toshkent, 1997-yil.
9. Ibragimov A. "Jahon adabiyoti".
10. Sattoriy H. Rumi o'tgan yo'l. -Jahon adabiyoti // 2007.
11. Radiy Fish: "Jaloliddin Rumi" G'afur G'ulom nashiriyoti adabiyoti va san'ati nashiriyoti, 1986-yil.
12. Jumayev R. "Mavlono Jaloliddin Rumi". – Toshkent-2003.
13. Munavvara Oymatova "Rumi dunyosi" maqolasi, 2013-yil.
14. Uchmoqqa qanot yo'q vale uchgayman [rivoyatlar va ruboiylar], – Toshkent-2003.
15. www.sciencebox.uz